

**HARAKATLI O'YINLAR VOSITASIDA 11-13  
YOSHLI MAKTAB O'QUVCHILARINING  
JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

*Dusyarov Salimjon Xudaymuratovich  
Termiz davlat universiteti "Sport boshqaruvi" kafedrasiga  
o'qituvchisi*

**ФОРМИРОВАНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ  
ШКОЛЬНИКОВ 11-13 ЛЕТ ЧЕРЕЗ ДЕЯТЕЛЬНО-  
ДЕЯТЕЛЬНЫЕ ИГРЫ**

*Дусяров Салимжон Худаймуратович  
Преподаватель кафедры «Спортивный менеджмент»  
Терmezского государственного университета*

**FORMATION OF PHYSICAL CULTURE OF  
SCHOOLCHILDREN AGED 11-13 THROUGH  
ACTIVITY GAMES**

*Dusyarov Salimjon Khudaimuratovich  
Lecturer at the Department of "Sport Management" at  
Termez State University*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada harakatli o'yinlardan foydalanish vositasida 11-13 yoshli mifik tab o'quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirish tizimi haqida atroflicha ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** harakatli o'yinlar, mifik tab o'quvchilar, jismoniy madaniyat, shakllantirish, tizim, shakllar, metod, vosita, ta'lim, tarbiya, sog'lomlashdirish.

**Аннотация:** В данной статье представлена подробная информация о системе формирования физической культуры школьников 11-13 лет средствами игрового действия.

**Ключевые слова:** игры-действия, школьники, физическая культура, формирование, система, формы, метод, инструмент, обучение, воспитание, оздоровление.

**Abstract:** This article provides detailed information about the system of physical culture formation of 11-13-year-old schoolchildren by means of action games.

**Key words:** action games, schoolchildren, physical culture, formation, system, forms, method, tool, education, upbringing, health improvement.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).**  
Bugungi kunga kelib yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev va hukumatning g'amxo'rligi tufayli ta'lim tizimining barcha pog'onalarida sport ishlariini rivojlantirish uchun keng islohotlar o'tkazilmoqda. Bu islohotlar to'la ma'noda umumta'lim mifik tablaridagi jismoniy tarbiya ishiga, o'quvchilarning jismoniy madaniyatiga, ularning jismoniy madaniyatni shakllantirishga ham taalluqli desak mubolag'a bo'lmaydi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida faol ishtirot etish,

fugorolarning faol hayotiy o'rinalini shakllantirish, ajdoddlardan meros bo'lib qolgan ko'hna va tarixiy urf-odatlar va an'analarni yosh avlodga yetkazish, yosh avlodlar tomonidan munosib davom ettirish, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayonining tub asosini tashkil etadi. Bunday jarayonlar jismoniy tarbiya darslarida, darslardan tashqari vaqtarda ham o'z ifodasini topishi lozim.

**ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ  
ЛИТЕРАТУРЫ \ LITERATURE ANALYSIS).**

O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin qisqa muddat ichida milliy sport turlari va o'yinlarning 1000 ga yaqini yozib olinganligi bu xazinaning qanchalik keng ko'lamli ekanligidan darak beradi. Milliy xalq va harakatli o'yinlarni tasniflash, turkumlash, harakat amallari va jismoniy sifatlar hamda ma'lum sport turiga xos bo'lgan o'yinlari ilmiy adabiyotlar shakliga keltirishda yetuk olimlarimizdan T.S.Usmanxodjayev, P.Xo'jayev, K.Rahimqulov, A.A.Pulatov, Sh.A.Pulatov, S.Usmanxodjayev va bir qancha olimlar hissasi beqiyosdir. Yosh avlodni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni jismonan sog'lom, ma'nani yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalashda ilmiy izlanishlari, darslik hamda o'quv qo'llanmalari bugungi kunga kelib ham asosiy manba bo'lib kelmoqda. [2]

Termiz davlat universiteti Sport faoliyati va boshqaruvi fakultetida bugungi kunda faoliyat olib borayotgan olimlardan pedagogika fanlari nomzodi., dotsent R.X.To'laganov, pedagogika fanlari nomzodi., dotsent Ya.Ch.Daniyeva, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktorlari (PhD) X.Berdiyeva, Termiz davlat pedagogika institutida faoliyat olib borayotgan olimlardan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktorlari (PhD) Ya.M.Abdullayev, Sh.M.Xudoyberdiyevlar harakatli o'yinlarning inson organizmiga ta'siri, mifik o'quvchilari va talabalarning salomatligini mustahkamlashda va ularning jismoniy madaniyatini shakllantirishda harakatli o'yinlardan foydalanishning ilmiy nazariy, ilmiy-amaliy asoslari hamda imkoniyatlari haqida ilmiy izlanishlarni olib borganlar. [1]

**MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)**  
Maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirishda, ularning rivojlanishini yaxshilashda, funksional tizimlari yaxshilanishida tanlab olingen, yoshga xos xususiyatga ega bo'lgan harakatli o'yin turlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday jarayonlarda fiziologik qonuniyatlarning ham mohiyati kam emas: organizmning jismoniy yuklamaga reaksiyasi, mashg'ulot davomida ish qobiliyatini rivojlanirish (start oldi holati, ishchanlik, mustahkam holat). Shularga muvofiq organizmning organlari va tizimlarini oldinda turgan harakat faoliyatiga tayyorlashni ko'zda tutish; ish bilan dam olishni o'zaro navbatlash, organizmning erishilgan funksional tayyorgarligi darajasini hisobga olgan holda jismoniy yuklamani asta-sekin oshirib borish; mashg'ulot tugallangandan so'ng or-

ganizmni nisbatan sokin holatga keltirish; boshqa faoliyatlarga o'tish uchun qulay sharoitlar yaratish [3].

Harakatli o'yinlar va milliy sport turlarining mohiyati shundaki, xalqimizning milliy ruhiyati, aqli-zakovatini tarix sinovlaridan o'tgan bebahoy boylik sifatida tarbiya samaradorligini yuqori saviyaga ko'taradi. Ular o'quvchilarning maktabgacha yoshidanoq hozirgi darajasidan ko'ra jiddiy farq qiladigan yuqori saviyada maktabga tayyorlaydi. Ularning fikrlash va jismoniy harakatchanlik imkoniyatlarini mukammal ro'yobga chiqaradi. O'yinlar kelajakda ota-onalar bo'lish va xilma-xil sharoitlarda mustaqil hayot kechirish uchun o'quvchilarni o'z aqli va mehnati bilan kundalik qiyinchiliklarni yechish va yengishga tayyorlaydi [4].

Sport turlari xos bo'lgan, jismoniy sifatlar va harakat amallariga o'rgatuvchi yoshga xos xususiyatlarga ega bo'lgan o'yinlarning soddaligi, ishtirokchilar tarkibining o'zgaruvchanligi bundan o'yinlardan tarbiyada juda keng foydalanish imkoniyatini yaratadi. Hali o'quvchilar futbol, voleybol, boks, qilichbozlik va boshqa sport turlari bilan shug'ullanishni boshlamasданоq, harakatli o'yinlar orqali katta sport uchun zarur bo'lgan aqliy va jismoniy sifatlarni shakllantirib va rivojlanirib boradilar. Tarbiyada hozirgi vazifa yoshlar qobiliyatini barkamol rivojlanirish hamda kamolotga yetkazishning eng mahsuldor yo'lini topish va joriy qilishdir. Shu nuqtai nazardan, barcha o'quv tarbiya muassasalari hamda olyi va o'rta maxsus o'quv yurtlarida har yili hududlarida keng tarqalgan milliy sport turlari, harakatli o'yinlarini yoshlarga o'rgatishni hamda jamoalarda musoboqlar tashkil qilish tavsiya etilmoqda [5].

Shuni ta'kidlash lozimki, jismoniy tarbiya darslari mazmun va shakl jihatdan o'zaro mos kelgandagina kutilgan natijalarni beradi. Ayniqsa, amaliy harakatlarni tashkil etish mazmuni uning sifati, shakli va xususiyatlari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi zarur. Bunda o'quvchilarni jismoniy chiniqtirish ustuvor omil va vazifalar bo'lib hisoblanadi. **Uni quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin:**

**Jismoniy chiniqtirish**

**Ertalabki badantarbiya**

**Dars mashg'ulotlari**

**Sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar**

**Sport tadbirlari, musobaqlar**

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi omil va tizimlar ko‘pchilikni tashkil qiladi, avvalo, ota-onadagi sog‘lomlik darajasi, o‘qituvchining mahorati, mashg‘ulotlar tashkil etiladigan joy, ularga qo‘yiladigan gigiyena, sanitariya va epidemiologik talablar, o‘quvchilarining aqliy-ruhiy, jismoniy rivojlanish darajasi, o‘quvchilaragi xarakter qirralari, yoshi va jinsi, salomatlik holati, axloqi, tarbiyasi, intellektual va jismoniy qobiliyati. O‘qituvchi tomonidan ayni jihatlar birinchi galda e’tiborga olinmog‘i va shularga asosan mashg‘ulotlar o‘tkazilmog‘i maqsadga muvofiqdir. [6]

Ma‘lumki, sinfdagi o‘quvchilar turli ijtimoiy muhitda va ularning barchasi o‘ziga xos xarakterga ega. Ba’zilari bilimlarni tez o‘zlashtirsa, ba’zilari sekin, ba’zilari passiv. Tajribalardan ko‘rinadiki, o‘quvchilarining aksariyati jismoniy tarbiya darslariga qiziqadi. Ammo shunday holatlar ham borki, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga umuman qiziqmaydigan o‘quvchilar ham bor. Ular bilan ishlash, fanga qiziqtirish, amaliy harakatlarni bajarishga chorlash o‘qituvchidan ulkan bilim va mahoratni talab qilsa, ikkinchidan ijodkorlikni (shaxsiy va kasbiy komponentlik) talab qiladi, shart va zarur qilib qo‘yadi. Shu sababli o‘qituvchi o‘quvchilarining sihat-salomatligi, ularning aqliy va jismoniy rivojlanganlik darajasidan boxabar bo‘lishi lozim. Buning uchun esa oila, mакtab, mahalla institutiari hamkorligidan, integratsiyalashgan jarayonlardan samarali foydalanish maqbul yo‘llardan hisoblanadi. Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchining so‘nggi tibbiy ko‘rigi, uy sharoitlari bilan yaxshi tanishgan bo‘lishi va ota-onasi bilan mutnazam aloqada bo‘lishi kerak [3].

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Harakatlari o‘yinlar vositasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, o‘quvchi yoshlarning salomatligini mustahkamlash, ularning jismoniy madaniyatini shakllantirish, milliy o‘zlikni anglash omillari millat genafondining shakllanishi va taraqqiyotida bu omillarning hal qiluvchi o‘rnini ifodalaydi. O‘qituvchi o‘quvchini individual yondashganda mashqlar miqdorini va takrorlash sonini qaysi vaqtida oshirish qaysi vaqtida cheklashni yaxshi bilishi, harakatlari o‘yinlarni bajarish uchun o‘quvchilariga shart-sharoitlar yarata bilishi va albatta, shifokor tavsiya etgan amaliy mashqlarni bajartirishi zarurdir. O‘quvchilarini dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda harakatlari o‘yinlariga o‘rgatishdan

maqsad, avvalo, ularni sog‘lom turmush tarziga tayyorlash, ikkinchidan, ularga milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz, an’analalarimiz asosida ta’lim-tarbiya berish hamda bu orqali jismoniy tarbiya fanidan belgilangan bilimlarni chuqr o‘zlashtirish, amaliy ko‘nikma va malakalarni takomillashishiga erishishdir.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Dars jarayoni va darsdan tashqari vaqtarda o‘quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirishda yuksak pedagogik tajriba, pedagogik mahorat tashkil qilish va o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu borada esa o‘qituvchilarga kasbiy va shaxsiy kompetentlik zarur bo‘ladi. Shuning bilan bir qatorda kreativlik asosida yondashuv, yuksak ma’naviyat hamda madaniyatatlilik, xushmuomalalik va shu kabi bir qator tamoyillariga e’tiborli bo‘lish, shu asosda jarayonlarni tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Daniyeva Ya.Ch. Dissertatsiya. I-II bosqich talaba-qizlar jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlardan foydalanish samaradorligi. – Toshkent. 2009.
2. Rahimqulov K. Milliy harakatli o‘yinlar. O‘quv qo‘llanma. «Tafakkur bo‘stoni», – Toshkent: 2012. – 142 b.
3. Usmanxodjayev T., Usmanxodjayev S., Chorshamiyev N.A., Keldiyorov Sh.E., Xoliquov B.X. Sport turlariga oid harakatli o‘yinlar. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «o‘zkitobsavdonashriyoti», 2020. – 176 b.
4. Usmanxodjayev T.S., X.Isroilov Sh., Pulatov A.A., A.Pulatov Sh. Milliy va harakatli o‘yinlar. Darslik. – Toshkent: «Iqtisod-moliya», 2015. – 265 p.
5. Dusyarov Salimjon Khudaimuratovich. Effectiveness of action games in the process of complex training of young football players. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. International scientific – online conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7648394>. London.
6. 11-13 yoshli maktab o‘quvchilarining jismoniy madaniyatini shakllantirishda harakatlari o‘yinlarning tutgan o‘rni va ahamiyati. Ta’lim, fan va innovatsiya. Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2023 yil. 6-son.